



XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

O'ZBEK TILIDA MODAL SO'ZLAR ETIMOLOGIYASI

Hatamov Ziyodin Mamadullayevich

*Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, 2-kurs doktoranti.
xatamovziyodin@gmail.com*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179307>

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek tilidagi modal so'zlarning xususiyatlari va etimologiyasiga oid ilmiy qarashlarga bag'ishlangan. Sobiq ittifoq davrida o'zbek tiliga bag'ishlangan bir nechta darslik-qo'llanmalar va maqolalarda, alohida ilmiy tadqiqotda tilimizdagi modal so'zlar o'rganilgan, ta'rif va tasniflari amalga oshirilganiga qaramay, ularda nisbatan turlicha ilmiy qarashlar va tasniflar musatqillik davrida ham kuzatiladi. Muallif o'zbek tilidagi so'z turkumlari bo'yicha qilingan ilmiy qarashlar asosida modal so'zlarni aniqlaydi va tasnifini amalga oshiradi. Ma'lumki, zamonaviy o'zbek tilshunosligi kattagina davrni bosib o'tdi. So'z turkumlariga tasnifiga oid yangicha mezonlar ishlab chiqildi. Umuman, so'z tushunchasi haqidagi ilmiy qarashlar o'zgardi. Tilshunoslik markazida turuvchi lingvistik paradigmalar o'zgarishi va modallik kategoriyasining yuqori mavqega ko'tarilishi natijasida modal so'zlarga bo'lgan ilmiy qarashlar ham o'zgardi. Maqolada xuddi shu jarayon ham qisqacha izohlanadi.

Kalit so'zlar: so'z turkumlari, modallik kategoriyasi, modal so'zlar mohiyati, kirish so'zlar, modal so'zlar etimologiyasi.

Modal so'zlarning etimologiyasi haqida "O'zbek tilining etimologik lug'ati" kitoblarida yetarli ma'lumotlar mavjud emas. Boshqa manbalarda ham bu kabi ma'lumotlarni juda kam uchratish mumkin.. Shu sanabli ularning kelib chiqishi haqida ayrim mulohazalarimizni bildirmoqchimiz.

Ma'lumki, modal so'zlar mustaqil so'z turkumlaridan shakllangan. Buni o'z vaqtida tilshunos olimlarimiz alohida ta'kidlab o'tishgan [1.54]. Bunda tilning jonli til bo'lishi, jonli nutqiy jarayon juda muhim ahamiyat kasb etgani ta'kidlanadi: "...so'z turkumlararo ko'chish ST ning nutq sathdagi o'zaro aloqalarining ma'lum shaklidir, bu xodisa aynan nutqiy xususiyat kasb etadi [1.16]". Modallarning kontekstdagi asosiy funksiyasi esa gapda kirish so'z sifatida kelishidir. Demak, ular orasidagi yana bir asosiy faqt shuki, modal so'zlar paradigma sifatida til sathiga tegishli sanaladi. Kirish so'z esa nutq sathiga tegishli tushunchadir. Shu sababli ham har qanday kirish so'z vazifasida kelgan so'z ham modal so'z bo'lavermaydi. Lekin aynan kirish so'zlarning modallar tomon siljishi va kirish birikmalarning qisqarishi ularning alohida so'z turkumi – paradigma o'laroq shakllanishiga asos bo'lgan. So'z turkumlari genezisini maxsus o'rangan olim J. Eltazarov aytganidek: "So'z turkumlarining o'zaro ko'chishi deganda ko'char so'zning tipik sintaktik pozitsiyasining o'zgarishi natijasida kategorial mazmunini o'zgartirishi tushuniladi [1.79]".



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Ma'lum bir so'z bekordan bekorga kirish so'z yoki kirish birikma vazifasida qo'llanilmaydi. Bu modal so'zga o'tishning dastlabki bosqichi bo'lgan deyish mumkin. O'z vaqtida ta'kidlanganidek, "...so'z turkumlarining shakllanishi ularning gapdagi funksiyasiga kelib bog'lanadi"[1, 140]. Ular kirish so'z vazifasida qayta-qayta qo'llanilaverish natijasida modal so'zlar paradigmatic qatoriga o'tadi. Modal so'zlarning ko'pchiligi nutqqa tegishli bo'lgan kirishlarning modalizatsiya (modalizatsiya boshqa so'z turkumining modal so'zga o'tishidir) natijasidir. [2, 123]. Aynan shu hodisasiga uchragan so'z shakllari bo'lganligi uchun ular o'zlarining tarkibidagi yasovchi hamda grammatik qo'shimchalar – egalik, kelishik, egalik, zamon-shaxs va boshqa ko'rsatkichlarini saqlab qoladi. Modallashgan bunday so'zlarning tarkibidagi morfemalar ko'chish natijasida o'z asl vazifasidan uzoqlashib qotib qoladi va ma'nosi xiralashadi. Xususan, *shubhasiz, so'zsiz, rostdan, chindan, o'z-o'zidan, aslida, chamasi, aftidan, shekilli, mazmuni, yaxshiki, go'rga, yaxshisi, demak, jumladan, aytaylik, deylik, borinki, aytganday, aytmoqchi, shuningdek, ko'rinadiki* kabi so'zlarda xudd shunday holatlar kuzatilgan. Modallar sifatida shakllangan ushbu so'zlardagi morfemalarni ajratib bo'lmaydi. Ular tarkibidagi yasovchi yoki grammatik shakllar bilan birgalikda modal so'zlardir. Shuningdek, ularning ko'pchiligining (*aftidan, tabiiy, o'z-o'zidan, shaksiz, shekilli, mazmuni, go'rga, demak, jumladan, aytganday, aytmoqchi, shuningdek, baxtinga* mustaqil so'z turkumi hisoblanadigan omonimlari mavjud. Ularning leksik ma'nosi ham xiralashgan va modallashish jarayoni nihoyasiga yetgan.

Shuningdek, modallarning bir qismi fors-tojik tilidan (*darkor, zarur, koshki, shoyad*) va arab tilidan (*albatta, haqiqatan, balki, taxminan, masalan, lozim, xususan, ehtimol*) o'zbek tiliga kirib kelgan so'zlar ekani takidlanadi [7. 102-119]. Bundan tashqari, Ularning etimologiyasi bo'yicha muhim ma'lumotlar bergan Sh. Rahmatullayev *darhaqiqat, darvoqe, filhaqiqat, xoynoxoy* kabilarning asli arab va fors-tojik tillaridan o'zlashib o'zbek tili nuqtayi nazaridan tub deb qaralishini ta'kidlab o'tadi [5. 128].

Ona tilimizda *shubhasiz, esiz, afsus, rostan, chindan, ehtimol, so'zsiz, taassuf, ehtimol, chamasi, tabiiy, shart, odatda* kabilar o'z asl leksik ma'nosini saqalgan holda modal so'z sifatida qo'llaniladi, ya'ni yuqoridagi so'zlar kabi leksik ma'nosi o'zgarmagan. Balki, shuning uchun ham ba'zi manbalarda shu va shu tipdagi so'zlar modal so'zlar emas, asli mustaqil so'zlar ekani ta'kidlangan [8.156]. Shuningdek, bu turdagi so'zlarni ayrim olimlar mustaqil so'zlardan o'sib chiqqanini, ya'ni shakllanib bo'lganni e'tirof etishsa, [5, 128], ba'zilari "modallik jilosiga ega so'zlar" sifatida baholaydilar [1, 165]. Yana shuni ham aytib o'tish lozimki, ushbu



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

modal soʻzlar alohida yakka oʻzlari olinsa, mustaqil soʻz turkumlaridan toʻliq ajralmagani maʼlum boʻladi. Shuning uchun ham ushbu tipdagi modal soʻzlarni B. Mengliyev “modallashgan” soʻzlar deya baholagan edi [2, 71]. Qanday baholanishidan qatʼiy nazar tilda mavjud va modal soʻzlar oʻlaroq juda faol qoʻllaniladi, biroq ushbu soʻzlarda modal soʻzlarga koʻchish jarayoni toʻliq nihoyasiga yetmagan. Ulardagi mustaqil soʻzlardan ajralib, sinkretik koʻchish usuliga asosida modallarga siljigan deyish mumkin. “sinkretik koʻchida mazmuniy va formal tomonlari aynan boʻlgan til birliklari ikki yoki undan ortiq maʼno va funksiyaga ega boʻlishi mumkin” [1, 87]. Lekin, aftidan, ularda koʻchish jarayoni toʻliq nihoyasiga yetmagani uchun ham tilimizda ikki funksiyada qoʻllanaveradi. Ushbu tipdagi modallar diaxron emas, sinxron (yani hozirgi davrda) koʻchishga misollar hisoblanadi.

Oʻzbek tilida *nazarimda, chamamda, menimcha, bilishimcha, uningcha, sizningcha, bizningcha, aytishlaricha* kabi soʻzlar mavjud. Ushbu soʻzlar keyinchalik boshqa ilmiy adabiyotlarga ham modal soʻz sifatida kiritilgan. Ushbu soʻzlar birikmalarning qisqarishi asosida modal soʻz sifatida shakllangan. Bunga bir qator asoslar mavjud. Chunonchi, oʻzbek tilida soʻz tarkibini chuqur tatqiq etgan marhum olim A. Hojiyev oʻz maqolasida menimcha soʻzini *mening fikrimcha, mening hisobimcha, mening taxminimcha* kabi birikmalarning qisqarishidan vujudga kelganini alohida taʼkidlaydi va shu kabi soʻzlarning tarkibidagi egalik shakllarining mustaqil shakl emasligini, ularning faqat uning shaxs maʼnosi saqlanganini aytib oʻtadi [6.32]. Haqiqatdan ham, yuqoridagi soʻzlarning tarkibidagi egalik shakllari faqat fikr manbasi boʻlgan shaxsga ishora qiladi. Oʻzbek tilida kishilik olmoshlari egalik qoʻshimchlari bilan qoʻllanilmaydi. *Mening fikrimcha* kabi birikmaning qisqarishi natijasida egalik qoʻshimchasi fikr manbasining shaxsini koʻrsatish talabi bilan men olmoshiga oʻtgan deyish mumkin. Lekin yuqoridagi soʻzlarning va *seningcha, bizningcha, uningcha* kabilarda *-ning* kelishik qoʻshimchasi sanaladi. Ular ham yuqorida keltirilgan tipdagi birikmalarning qisqarishi natijasida vujudga kelgan hamda boshqa kategorial tipga koʻchishi natijasida tarkibi soddalashishga uchragan.

Ochigʻi, ravshanki, toʻgʻrisi, rosti, qisqasi, aniqki, maʼlumki kabi soʻzlar ham modal soʻzlar oʻlaroq shakllanish jarayonidan yaqin tarixda oʻtgan soʻzlar deyish mumkin. Tildan foydalanuvchi inson doimo kam kuch va vaqt sarflashga intiladi. Mana shu intilishi natijasida tilda tejamilik qonuniyati har doim amal qiladi. Yuqoridagi soʻzlarning modal soʻz vazifasini bajarishida ham ushbu qonuniyat muhim roʻl oʻynaydi. Umuman, ushbu qonuniyat soʻz turkumlarining



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ko'chishi va yangi til birliklarining shakllanishida muhim ro'l o'ynashini tilshunos olim J. Eltazarov alohida ta'kidlagan: "So'z turkumlarining o'zaro ko'chishi, aslida, tejamlilikning semiotik va sintagmatik planda namoyon bo'lishi deyish mumkin[1.119]". Yuqorida keltirganimiz so'zlar ana shu tejamlilik tamoyili asosida shakllanayotgan modal so'zlar deb hisoblash mumkin. Bu so'zlarni osongina kengaytirish, butun birikmaga yoki gapga teng holatga keltirish mumkin. Masalan, *Ochig'i, bugun fudbo'l bo'lishini hech kim bilmas edi* gapidagi kirish so'z vazifasidagi so'zni *Gapning ochig'i shuki* shaklidagi butun bir gapga bemalol o'zgartirish mumkin. Bunda tildagi ortiqchalik tamoyili ishga tushiriladi. Ushbu tipdagi gaplarning qisqarish holati haqida N. Mahmudov ham "O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi" da alohida ta'kidlagan edi. Unda olim tilda modusni ifodalovchi gaplar mavjud ekanligi aytib o'tadi va ularni "modus bosh gaplar" deya ifodalaydi[3.234]. Yuqoridagi qolgan so'zlarni ham *gapning tog'risi, shu narsa aniqki, shunisi, ma'lumki* tarzda kengaytirib gaplar tarkibida ishlatish mumkin. Bunda ular qatnashgan gapning umumiy mazmuniga putur yetmaydi. Shunchaki, ular qatnashgan gaplar ergash gapli qo'shma gapga aylanadi. *Ganing tog'risi shuki, bugun o'yin bo'lishini hech kim bilmasdi* kabi. Tilshunos olim N. Mahmudov aytganidek: "...modusni ifodalovchi tizim ixchamlashishga moyil bo'ladi" va yana ta'kidlab o'tadiki, bu turdagi gaplar "hatto bir so'zgacha ixchamlashishi mumkin[3.235]". Tining tejamlilik tamoyili asosida bu ixchamlashish, qisqarish natijasida kirish so'zlar sifatida qo'llangan bu kabi so'zlar modal so'zlar sifatida shakllanish jarayoniga o'tadi. Ya'ni nutqiy hodisa til hodisasiga aylanib boradi. Bu ixchamlashish jarayonida modus qismini ifodalovchi gapdagi eng asosiy so'z qoladi. Yuqoridagi gada bosh gap modusni ifodalagini uchun alohida ta'kidlanadi. Bunday gaplarda bosh gap modusni ifodalagani uchun biron voqea-hodisani ifodalamaydi. Asosiy voqea-hodisa ergash gap orqali ifodalanadi. Bosh gapdagi eng asosiy ta'kid yukini oladigan so'z *tog'risi* so'zidir. So'zlovchining niyati fikrining tog'riligini ta'kidlashdir. Shu sabab u kesim yonida joylashadi va mantiqiy urg'u oladi. Natijada bu turdagi gaplarni bir so'zga qadar qisqartirishi mumkin. Keltirilgan qolgan so'zlar ham shu jarayon asosida modal so'z sifatida shakllanish tomon siljigan deb hisoblash mumkin. Chunki ularning tarkibidagi shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar yoki ham o'z asl ma'nosidan uzoqlashgan. *Ochigi, tog'risi, ma'lumki, qisqasi* kabi kabi so'zlarning morfem tarkibi soddalashishga uchragani so'z tarkibidagi soddalashish tadqiq etilgan ishda ham aytib o'tilgan[9.135]. *Aniqki, ravshanki* kabi so'zlar ham -ki qo'shimcha-yuklamasiz tilimizda kirish so'z sifatida deyarli qo'llanilmaydi. Umuman, bu kabi qisqarishga uchrab, bir so'zga teng keladigan kirishlar o'zbek tilida



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ko'p uchraydi. Lekin ularning barchasini modal so'zlar pardigmasiga o'tgan deb bo'lmaydi.

Durust, rost, to'g'ri, tuzuk, yaxshi va shu kabi ayrim so'zlar modal ma'no bildiradi. Gapda yuqoridagi modal so'zlar kabi kirish so'z vazifasida keladi. Ular funksional modal so'zlardir. Ular modal ma'noni davriy emas, vaqincha ifodalaydi. Ya'ni ular doimiy subyektiv modallikni ifodalash uchun ixtisoslashmagan. Ular bir o'rinda modal so'z bo'lsa, boshqa o'rinda mustaqil so'z turkumlariga mansub bo'lib jumalar tarkibida qatnashadi. Ushbu so'zlar modal so'z bo'lib kelgan gaplardan alohida yakka o'zini ajratib olsak, ular modal so'zlik xususiyatini yo'qotadi. Umuman, tildagi ma'lum bir so'z turkumidagi so'zlarning kontekstda boshqa so'z turkumi vazifasida kelishi ma'lum bir jonli til uchun odatiy holdir. Bu so'zlarning boshqa so'z turkumiga siljishi jarayoni sanalib, so'zning ikkilamchi funksiyasi deyish mumkin bu – ma'lum bir so'zning o'ziga xos tipik sintaktik vazifada emas, balki boshqa sintaktik vazifani bajarishidir. Yuqoridagi so'zlarda ham aynan shu holat kuzatiladi. Bunday holat barcha so'zlar bilan sodir bo'lmaydi, albatta. Ma'nosi tarkibida modal ma'no ottenkalari mavjud yoki istemolchilar tomonidan shunday okkozional ma'no yuklangan va bu boshqalar tomonidan qabul qilingan so'zlar, ya'ni J Eltazarov aytganidek funksional modal so'zlar [1.114.] deyish mumkin. Tildagi ancha-muncha so'zlarda konnotativ ma'nolar mavjud bo'ladi. Ana shu ifoda semalarining mavjudligi ularni modal so'z sifatida qo'llashga yo'l ochadi. Tilimizdagi bunday xususiyatga ega so'zlarning ba'zilar haiqda boshqa kichik tatqiqotda ham alohida ta'kidlangan. Unda *yaxshi, durust, tuzuk, qiziq, ajab* kabi sifatlar subyektiv baho ottenkalari mavjud so'zlar ekanligi alohida ta'kidlanadi[4.28.] Umuman, olganda modal so'zlar muloqot ehtiyojidan kelib chiqib, modal ma'no ottenkasi mavjud yoki so'zlovchining ta'sirida modal ma'no "yuklangan" so'zlardan shakllanadi deyish mumkin.

Xullas. modal so'zlar mustaqilning ko'pchiligi so'z turkumlaridan o'sib chiqqan. Lekin ularning etimologiyasi hali to'liq o'rganilmagan. Ma'nosi tarkibida modal ma'no ottenkalari mavjud yoki istemolchilar tomonidan shunday okkozional ma'no yuklangan va bu boshqalar tomonidan qabul qilingan, shuningdek birikmalarning qisqaruvidan modal so'zlar shakllangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eltazarov Ж. Д. Сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ва кўчиш ҳоллари. Монография. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
2. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili fanidan ma'ruza matnlari. – Toshkent: 2012.
3. Нурмонов А., Махмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжайева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Тошкент: Фан, 1992.



**XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION
YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI**
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

4. Гиёсов С. Ўзбек тилида субъектив баҳо сифатлаининг семик таҳлили. Ўзбек тили ва адабиёти, 1986. № 2, 28-б.
5. Rahmatullayev Sh. Hozigi adabiy o'zbek tili. Darslik – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2006.
6. Ҳожийев А. Ўзбек тилининг долзарб муаммолари. Ўзбек тили ва адабиёти, 2005. №5. 30-42-б.
7. Ўзбек тили лексикологияси . Тошкент, ЎзФА Фан, 1981.
8. Ғуломов А. , Аскарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. 3-нашри. –Тошкент: Ўқитувчи, 1987.
9. Йигиталиева З. М. Тилнинг модал структураси ва модуснинг ифодаланиши, Фил. фан. фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Фарғона. 2020.